

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

SHOIR SHODMONQUL SALOM SHE’RLARI BADIYYATI TAHLILI

Qayumberdiyeva Nurjahon
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
E-mail: nurjahon937@gmail.com

Tel: + 99891 314 08 98

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatida o‘z o‘rniga ega shoir Shodmonqul Salom she’rlari haqida mulohazalar keltirildi. Ijodining ustun mavzulari, ichki pafosi tahlil qilinib, she’riy to‘plamlaridan misollar keltirildi. Shoir she’rlari bilan birga adabiy tahlillari haqida fikr bildirilib, xulosalar keltirildi.

Kalit so‘zlar: ichkin ruhiyat, sirli satrlar, yaxlagan dunyo, ko‘ngil namoyishlari, dard ifodasi.

Annotation: This article discusses the poems of Shodmonkul Salom, a poet of the heart who has a place in modern Uzbek poetry. The dominant themes and inner pathos of his work were analyzed, and examples from his poetry collections were given. Opinions were expressed and conclusions were drawn about the poet's literary analysis along with his poems.

Keywords: inner soul, mysterious lines, frozen world, expressions of the heart, expression of pain.

Istiqlol davri she’riyatida ijodkor “olami kubro”dan ko‘ra “olami sug‘ro” tasviriga keng o‘rin berdi. Atrofda yuz berayotgan voea-hodisalardan inson ichki hodisalari muhimroq o‘rin egalladi. Ulug‘bek Hamdam buni nazarda tutib: “Endi shoir o‘z nigohini tashqaridan — atrofda yuz berayotgan olamshumul voqea hodisalardan uzib, o‘z miskin ko‘ngliga qaratdi va uni “tarjima” etishga kirishdi” [Xamdamov Y, 2007, 75-b.] deb yozadi. Aslida ichki olamdan murakkabroq jumboq yo‘q. San‘at uchun, ijod uchun inson botini tuganmas mavzu, obyekt. Mavlono Rumiy: “zamonamiz olimlari ham qilni qirq yoradilar, o‘zlariga bog‘liq bo‘lmagan narsalarni juda yaxshi biladilar, ammo o‘ta muhim, o‘zlari uchun qolgan barcha narsalardan yanada yaqin bo‘lganni, ya‘ni o‘zlarini bilmaydilar. Hamma narsadan yaqin bo‘lgan borliq bu – ularning menligi” [Rumiy J, 2018, 86-b] ekanini aytadi. Bu fikrlar davomida inson ko‘zini ochish lozimligi va ochilgan ko‘zlari bilan o‘z mohiyatiga nazar solishi, aslida o‘zi olamga teng bir olamligini uqtiradi. She’riyat aytadigan gap aslan shu olam muammosi ekani faqat istiqlol davriga kelibgina anglandi. Ijod asl o‘zaniga tushdi. Zamonaviy she’riyat inson ichidagi olamga teng kichik olamni bor murakkabligi, chigalliklari bilan, jumboqlari bilan tasvirlashga kirishgan. Bugun qoralanayotgan she‘rlar ijodkorning o‘z ichki olamini butun bo‘y-basti bilan tasvirlaydi.

Shoir Sh. Salom ijodi zamon shoirlari kabi botinning chigal, murakkab ifodali jumboqlaridan uzoq bo‘lsa-da, ichki taftishlardan, qalqinishlardan xoli emas. Lirik qahramon ichki olamida yashaydi va shu olamning kechmishlarini bayon qiladi:

Ichimda boyqushning ini bor,

(Har neki uyqashdir tilakka.)

Jim bo‘l deb may ichsam, bu quzg‘un

Yurakni tortadi gazakka. [III. Salom, 2020, 51-b.]

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

Shoir aytgan ichidagi “in” ko‘p kechinmaning manbai. Undan ruhiyatning turli tovlanishlarini tutish mumkin. Shoirlar ichida sayroqi qush yashaydi, bunga nisbat berilganda bulbul obrazi dominant obraz hisoblanadi. Sh. Salom uni boyqush demoqchi. Chunki bulbul sasida masrurlik bor, jamiki go‘zallikni kuylaydi. Lirik qahramon ichida esa “toshning zil botgan o‘rni bor”, bu bulbulga og‘irlik qiladi:

Ichimda bir toshning zil botgan

O‘rni bor, o‘zin g‘am eritgan.

Men shuncha hasratning ostida

Yuribman, shu yurish horitgan.

Ayni damdagi bayonda lirik qahramon ichida abadiy qish. “Yaxlagan dunyo” shoir ichiga ko‘chgan. Ko‘ngilga qo‘l solib paypaslaganda qo‘li faqat muzga tegaveradi, laxcha cho‘g‘ izlagani behuda:

Ichimda bir qishning manzili,

Sochimdan to tovon muzlatar.

Qo‘llari yaxlagan dunyodan

Behuda laxcha cho‘g‘ izlatar.

Ichimda yuribman bir umr...

Bir umr ichda yashash shoirona qismat. Tashqi olam hodisotlaridan ichki olamniki kengroq ba‘zan. Bugungi lirika shu olam tafsiloti bilan mashg‘ul. Boshqa shoirlarda ham o‘z ichki olami tavsifiga duch kelaveramiz:

Ichimda notanish daryo uyg‘ondi,

Ichimda uxladi ming yillik to‘fon.

Ichimda qarsillab og‘ochlar sindi,

Ichimda gurkirab o‘sdi hayajon.

Ichimda shaklini yo‘qotdi shamol,

Ichimda kashf etdim dilxush ranglarni.

Ichimda o‘ksinib yig‘ladi Ayol,

Ichimda bostirdim asriy janglarni.

Ichimda vulqonday portladi quyosh,

Ichimda jamladim bir osmon nurni.

Ichimda o‘zimni qilib qo‘ydim fosh,

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

Ichimda uxlatdim muallaq sirni.

Ichimda o‘lmoqda yam-yashil mavsum,

Ichimda bahorday yashnar ishtiyoq... [Otajonova B, 2019, 23-b.]

Borliqda bir paytning o‘zida ikki fasl hukmron bo‘lolmaydi, inson tabiatida bo‘lishi mumkin. Olamda neki mavjud bo‘lsa inson botinida ham mavjud. Daryo uyg‘onishi, to‘fon uxlashi, shamollar, dovullar bo‘lishi, bir osmon nur to‘planishi, bir tunning zulmati ko‘chishi, fasllar o‘lishi, tirilishi – hamma-hammasi mavjud birgina insonda. Faqat ijodkorgina shu voqelikni anglaydi va she‘r tiliga tarjima qiloladi. U. Hamdam yozganidek, bugunning shoiri olamdan keng odamni “tarjima qilish”ga shung‘idi.

She‘rlarda boshdan oxir shoir yoki lirik qahramon tilidan “men” bilan bog‘liq tuyg‘ular tasviri yoritiladi. Tasvirni obrazlar tiliga ko‘chirish nisbatan kam kuzatiladi. Asosiy o‘rinda lirik qahramon o‘zi, o‘z tilidan o‘z kechinmalarini izhor qiladi. Aslida dunyo mavjudligini shoir unutadi, she‘r og‘ushidagi shoir o‘zini ham dunyo unutganday xonanishinlikda. Yurak olam tashvishlaridan balandga ko‘tarilgan mahalda she‘r ta‘qib qila boshlaydi. Tun va yolg‘izlik fikrni teranlashtirgan mahali ko‘pgina haqiqatlar shoirga yuz ocha boshlaydi.

Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida boshqa unsurlar bilan birga mavzular ham yangilanib bormoqda. Bu tabiiy jarayon. Adabiyot to‘ni bir xillikdan ko‘ra yangilanib turgani ko‘zni quvontiradi. Shoirlar ijodida bitta mavzu tutib olinmaydi. To‘rt misra she‘rdan to‘rt xil mazmunni uqish mumkin. Inson “men”ining oldin kashf qilinmagan qirralari namoyon bo‘ladi. Shu bois nazm maydoni rangin mavzular bilan boyib, go‘zallashib bormoqda.

Shoir Sh. Salom ijodida mavzular qamrovi keng. Deylik, boshqa shoirlarda she‘rlar bir-birining davomiday ko‘rinadi. Bir she‘rda boshlangan ruhiyat tasviri keyingisida ham bevosita davom etadi. Sabab, oqibat, xulosa qilib chegaralashning imkoni yo‘q. Sh. Salomda olingan bir mavzu shoirning bitta xulosasini yoritadi. Tasvir obyekt ham, bayon ham bir-biriga o‘xshamaydi. Biror voqea-hodisaning falsafiy tomoni, undan topilgan hikmat she‘r qilinadi. Masalan,

Merganlar tong chog‘i qoyaga yetgay,

Buloqli bir ajib soyaga yetgay,

Kim o‘z manziliga yetgay qay mahal,

Bir yigit qirq yilda voyaga yetgay. [III. Салом, 2020, 92-b.]

Bu shoirning hayotdan olgan xulosasi. Unda umumiy mavzular bilan shaxsiy gap aytish pozitsiyasi kuchli. Shuningdek, xalqonalik ustun. Har bir shoir ulg‘aygan tuproq taftidan uzoqlasholmaydi, qayda bo‘lmasin umr bo‘yi ko‘nglining qayeridadir asrab keladi. Sh. Salomda ham qadim Surxonning bugungi hayoti, onalarining, o‘g‘lonlarining, dehqoni-yu cho‘ponlarining hangomalari, toshqin qalbi, o‘y-xayoli she‘rga ko‘chadi. Ayniqsa, xalq dostonlariga hamohanglik aksariyat she‘rlarida ko‘zga tashlanadi. “Alpomish”, “Boboravshaxonga”, “Sayis – tulpor”, “Do‘mbira” she‘rlari sarlavhasidan ma‘lum bo‘lganidek, baxshiyona yo‘lda yozilgan. “Alpomish” she‘ri shunday boshlanadi:

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

Bu savdolar o‘tganda,

Bu dunyolar yosh edi.

O‘n ming nigoh termulgan

O‘n ming qaboq-qosh edi. [Ш. Салом, 2020, 81-b.]

Yengil vazn va sodda ifoda baxshiyona she‘rlaridan boshqa mavzularda ham ustunlik qiladi.

Shodmonqul Salom so‘zlar takroridan mukarrar san‘atini yasaydi:

Asta-asta oqaradi tong,

Asta-asta bo‘y laydi quyosh.

Asta-asta soch yig‘ar xayol,

Asta-asta ko‘tarilar bosh.

Asta-asta tashlanar qadam,

Asta-asta boshlanar kurash.

Asta-asta xo‘rsinar odam,

Asta-asta charchaydi yashash. [Ш. Салом, 2020, 73-b.]

Takror so‘z ohangi she‘rxonni ham asta-asta she‘r ichiga olib kirib ketadi. Bu takror besh bandli she‘rning oxirgi ikki misrasigacha davom etadi. Shoir nigohida jarayon asta-asta yuz bera boshlaydi. Tong, quyosh, xayol, kurash, yashash – hamma-hammasi asta-sekin almashadi. O‘quvchiga ta‘sir jarayoni ham aynan juft so‘z takrori bilan kechadi. Shoir badiiy maqsadini amalga oshirishda o‘ziga xos ifoda usulini tanlagan.

Badiiyatga munosabat, badiiy tafakkur, tasavvurlar yangilanib boraveradi. Biroq adabiyotning vazifasi o‘zgarmaydi. Tushunchalar o‘zgaradi, voqelik esa doimiy. Adabiyot o‘z an‘anaviylik o‘qidan chiqib ketmaydi. Jahon adabiyoti kontekstida janrlararo munosabatlar, tipologiya, badiiy-estetik tamoyillar doim o‘zaro almashinuv jarayonida. Bugungi o‘zbek she‘riyatida jahon badiiy tafakkuri ilg‘or tajribalari bilan sintezlashuv hodisasi yuz bermoqda. Natijada poeziyamiz o‘z zaminidan uzilmagan holda o‘zgacha tafakkur tarzi, adabiy shakllar, ifoda uslublarini milliy ruh zaminida qabul qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Карим Б. Истиқлол адабиёти: назм ва наср. Монография. Фирдавс-шоҳ нашриёти, Тошкент-2021. 145 б.
2. Otajonova B, Kumush yog ‘dular. Toshkent, ADABIYOT, 2019, 86-b.
3. Rumi J. Ichindagi ichindadir. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti. 2018, 212-b.
4. Ҳамдам У. Янгиланиш эҳтиёжи. Тошкент, Академнашр, 2007. 104-б.
5. Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърляти. Монография. Тошкент "Адиб" нашриёти, 2012 303 бет.

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

6. Салом Ш. Шеър сайёраси., Тошкент, ADABIYOT - 2020 , 251-б.